


QASHQADARYO VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-mart)


Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2351,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,4 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 56,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 36,4%), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 2119,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 105,8 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 174,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 109,2 %) tashkil etdi.

Tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning faqat Qarshi shahri tumanidan tashqari barcha tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Shaxrisabz (115,0%), Qarshi (106,1%), Qamashi (105,0%), G'uzor (104,7%) tumanlarida qayd etildi.


Chakana savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari, (%)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o`tgani yilning mos davriga nisbatan kamayish kuzatilib 36,4 % ni va 56,8 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 2,4 % ulushiga to`g`ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 2119,8 mlrd. so`mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 105,8 % ga o`tdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 90,2 % ga teng.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)



**Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**



■ Kichik tadbirkorlik
■ Yirik korxonalar


Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Koson (100,0%), Kitob (99,9 %), Mirishkor (99,9 %), Qamashi (99,9%) va Yakkabog' (99,8%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Viloyat bo'yicha chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 2,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Qarshi shahrida (61,5 %), Shaxrisabz tumanida (28,3 %) va Muborak (2,4%) tumanlarida kuzatilgan.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarning
chakana savdo tovar aylanmasi hajmi**

	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Qashqadaryo viloyati	56763,8	36,4	2294683,2	125,5
G`uzor	981,5	80,5	91493,9	124,3
Dehqonobod	418,5	18,7	119533,7	118,4
Qamashi	200,8	7,9	174914,5	142,0
Qarshi	402,1	95,4	94096,6	136,5
Koson	91,7	3,0	234876,3	117,5
Kitob	233,4	7,5	164504,5	129,1
Mirishkor	125,0	4,1	109916,4	119,3
Muborak	1335,1	84,5	68421,0	116,8
Nishon	248,9	81,8	94892,1	117,4
Kasbi	350,8	17,0	102103,1	115,5
Chiroqchi	586,1	101,3	210119,6	120,3
Shaxrisabz	16045,2	2 m	72490,2	117,5
Yakkabog`	234,4	84,1	136239,1	124,9
Qarshi sh	34926,9	28,3	485464,7	136,6
Shaxrisabz sh	583,4	13,4	135617,8	118,8

Shahar va tuman kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



2019 yil yanvar-mart oyida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 730,4 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 99,3 % ni tashkil qildi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi eng yuqori ko'rsatkichlar Qarshi shahri (1917,4 ming.so'm), Shaxrisabz shahri (992,0 ming. so'm) va Mirishkor (940,5 ming.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Qarshi (390,0 ming.so'm), Shaxrisabz (405,2 ming.so'm) va G'uzor (463,3 ming so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich shahar va tumanlar kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming. so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Qashqadaryo viloyati	730,4	99,3
G`uzor	463,3	102,8
Dehqonobod	832,4	100,9
Qamashi	659,8	102,8
Qarshi	390,0	103,8
Koson	842,5	101,1
Kitob	634,0	101,7
Mirishkor	940,5	99,7
Muborak	820,7	101,6
Nishon	638,5	102,0
Kasbi	533,3	100,7
Chiroqchi	525,7	102,2
Shaxrisabz	405,2	113,2
Yakkabog`	528,1	103,0
Qarshi sh	1917,4	91,1
Shaxrisabz sh	992,0	98,3

Jumladan, 2019 yilning yanvar-mart oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,1 %ni tashkil etib, 52,5 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 96,4 % ni tashkil qildi.


**QASHQADARYO VILOYATINING
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

(2019 yil yanvar-mart)

Joriy yilning yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 569,9 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 104,5 %ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-mart oyi yakunlariga ko'ra, 310,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,5 %ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 54,5 % ni tashkil qilmoqda.

**Yirik va kichik korxonalar
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




Ulgurji savdo tovar aylanmasining tarkibida yirik korxonalar ulushi 45,5 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mln..so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Qashqadaryo viloyati	569866,3	104,5	259349,9	109,8	310516,4	100,5
G'uzor	2287,8	85,0	0,0	0,0	2287,8	100,4
Dehqonobod	939,1	100,0	0,0	0,0	939,1	100,2
Qamashi	16343,2	329,6	11415,2	210 M	4928,0	100,3
Qarshi	29067,3	154,1	10123,5	0,0	18943,8	100,5
Koson	19348,4	100,5	0,6	0,0	19347,8	100,6
Kitob	18898,9	100,4	0,5	3,5	18898,4	100,4
Mirishkor	21257,2	3,9 M	15732,7	0,0	5524,5	100,3
Muborak	13790,2	129,9	10747,4	141,7	3042,8	100,5
Nishon	33171,7	199,7	16480,6	434 M	16691,1	100,4
Kasbi	23662,4	4,6 M	18539,5	26 M	5122,9	100,2
Chiroqchi	10098,8	100,3	14,0	56,2	10084,8	100,3
Shaxrisabz	4041,0	95,9	70,5	26,7	3970,5	100,5
Yakkabog'	8799,2	100,0	0,0	0,0	8799,2	100,5
Qarshi sh	345380,8	87,5	176113,7	77,8	169267,1	100,2
Shaxrisabz sh	22780,3	95,2	111,6	8,2	22668,6	100,4

**Tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari, (%)**



Ulgurji tovar aylanmasida o`tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o`sish sur`atlari G'uzor (85,0%), Qarshi shahar (96,9 %) va Shaxrisabz shahar (95,2%) tumanlarida qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi
bo'limi

Tel.: (71) 230-83-91